

*Jizzakh State Pedagogical Institute*



***Journal of Preschool  
Education***

***The faculty of pre-school  
education***

## XORIJIY TILLARNI O'YINLAR YORDAMIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA O'RGATISH

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

Ahmadova Charos

Baxtiyarova Sevinch

### Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'yinlar yordamida o'rgatish usullari va maktabgacha ta'lim tashkilotida o'yinlarni qanday tashkil qilish haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** O'yin innovatsion usullar, qo'shiq, she'rlar, multfilm, rol ijro etish

2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori Maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta`lim muassasalari tarmog`ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta`minlash, bolalarni matab ta`limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta`lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta`lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida: ilg`or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellectual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanish sharoitlarini yaratish; maktabgacha ta`lim sifatini oshirish, maktabgacha ta`lim muassasalarida bolalarni matabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta`lim – tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta`lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish;

Maktabgacha ta`lim muassasalarida 5-6 yoshdagi bolalarni matab ta`limiga tayyorlash bo`yicha 6100 ta qisqa muddatlari guruhni tashkil etish; zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uslublarni inobatga olgan holda maktabgacha ta`lim muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishning o`quv reja va dasturlarini takomillashtirish; maktabgacha ta`lim muassasalari hududini obodonlashtirish va ichimlik suvi bilan ta`minlash uchun Qoraqalpog`iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining mablag`lari; maktabgacha ta`lim muassasalarini jihozlash uchun- O`zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag`lari; xalqaro moliyaviy institutlar, tashkilotlar va donor mamlakatlar mablag`lari, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari, shuningdek qonun hujjalarda taqiqilanmagan boshqa manbalar. Mustaqillik yillarida respublikada milliy ta`lim va tarbiya tizimi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo`nalishi darajasiga ko`tarildi. O`zbekiston Respublikasining

Birinchi Prezidenti bevosita rahbarligida ishlab chiqilgan va jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturining muvaffaqiyatli joriy etilishi natijasida mamlakatda noyob uzlaksiz ta'lif tizimi barpo etildi.

Shunday ekan, kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o'rgatish ancha mushkul va mas'uliyatlari. Bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- qo'shiq va she'rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo'lgan, ma'noga ega bo'limgan harf yoki birikmalarni kuyga solib o'rgatish.

Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin.

- aqliy va jismoniy harakatlar bilan bo'g'liq bo'lgan o'yinlar;

- multfilmlar; Bolalar til o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunma-sada, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganishlari uchun samarali yo'l.

- rol ijro etish(role play) o'qituvchi biror ma'lumotni, masalan, hayvon yoki qushlarning nomlarini o'rgatayotgan paytda rol orqali ijro etishi yoki bolalarga ijro ettirishi lozim. Misol uchun: bir o'quvchi itning vovillashi, mushukning miyovlashini

ko'rsatib bersa, boshqa bir o'quvchi bu tovushlar qaysi hayvonga tegishli ekanligini bilib, uning inglizcha nomini aytishi zarur.

### **Ranglar o'yini**

**Maqsad:** ranglarni inglizcha nomini o'rganish

**Material:** turli xil rangdagi narsalar

**Jarayon:** Biz barcha to'plangan narsalarni tasodifiy ravishda stolga yoki yerga qo'yamiz va barcha bolalarni buyumlar atrofida to'playmiz.

Biz har biridan ob'ektni olishni va ularni rangga qarab tartibga solishni so'raymiz. Har safar bola buyumni olganda, barchadan rangni ingliz tilida baland ovoz bilan aytishni so'raymiz.

**Qoidalar:** har bir bola bir vaqtning o'zida faqat bitta ob'ektni olishi mumkin.

**Maslahatlar:** Tarbiyachi har bir bolaning navbatini boshqaradi va tanlaydi.



**Xulosa** qilib aytganda, maktabgachan yoshdagi bolalarga til o`rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg`ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali o`yinlardan foydalanib mashg`ulot o`tish ularning ingliz tilidan oladigan bilimlari uchun poydevor bo`lib xizmat qiladi.

**Foydalilanigan adabiyotlar ro`yxati:**

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 dekabrdagi “2017-2021 yillarda maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risidagi” qarori // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. O`. Xoshimov, I.Yoqubov Ingliz tili o`qitish metodikasi. - Toshkent: 2003. - 270 c.
3. Galskova.N.D Nikitenko Z.N Chet tillarini o`qitish nazariyasi va amalyoti. 2004 yil.
4. Zemchenkova T.V Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ingliz tili. M:VAKO, 2008 yil.